



## UMUMTA`LIM DARSLIKLARIDA MUSTAHKAMLASH DARSLARINING AHAMIYATI

---

*Shahzoda Olimova Abbas qizi*

*E-mail: shahzodaolimova874@gmail.com*

*Samarqand davlat universiteti*

*Kattaqo`rg`on filiali 3-bosqich talabasi*

*Ilmiy rahbar: Djakbarova Mahliyo*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumta`lim ona tili darsliklarida keltiriladigan takrorlash darslarining o`rni qanchalik muhimligi haqida so`z boradi. Ushbu mavzularning darsliklarga kiritilishi o`quvchilar bilimlarining yanada mustahkamroq bo`lishini ta'minlaydi.

**Kalit so`zlar:** Ona tili, mashqlar, topshiriqlar, takrorlash, sinf darsliklari, metodlar, mantiqiy fikrlash, lingvistik kompetensiyalar.

**Abstract:** This article discusses the importance of revision lessons in general mother tongue textbooks. The inclusion of these topics in textbooks ensures that students' knowledge is more solid.

**Key words:** Mother tongue, exercises, assignments, repetition, class textbooks, methods, logical thinking, linguistic competencies.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается важность повторения уроков в общеобразовательных учебниках родного языка. Включение этих тем в учебники обеспечивает более прочные знания учащихся.

**Ключевые слова:** Родной язык, упражнения, задания, повторение, классные учебники, методика, логическое мышление, языковые компетенции.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2016 yil 19 oktabrda Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati-O`zbekiston Liberal-demokratik partiyasining VIII s`yezdidagi saylovoldi ma`ruzasida bildirilgan ayrim fikrlari mazkur mavzuda keng mushohada qilindi. Ma`ruzada bugungi kunda axborot – kommunikatsiya texnologiyalari, Internet tizimini keng rivojlantirmasdan turib, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilash, barqaror taraqqiyotga erishish haqida so`z yuritish mumkin emasligiga e`tibor berilgan. «Yoshlarning kitob o`qishga bo`lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do`st bo`lishga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e`tibor qaratish lozim bo`ladi. Buning uchun, avvalo, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng sara



namunalarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targ'ib qilishga alohida e'tibor berishimiz muhim ahamiyat kasb etadi". Bizning asosiy maqsadimiz ta'lim jarayonini shaxsning hayotiy qiziqishlarini qondirishga, umumiy madaniyatini shakllantirishga, uning jamiyat hayotida moslashuvi, ta'lim va kasbiy dasturlarni ongli ravishda tanlay olishi hamda o'zlashtira olishga qaratilgan. Ushbu maqsadga erishish uchun shaxsni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashga shakl va metodlarini ishlab chiqish, ma'rifiy ishlarni rivojlantirish, uzluksiz ta'limning barcha bosqichlari, xususan ta'lim sifati, ularning madaniy va ma'naviy-axloqiy darajalariga talabni oshirish o'quv-tarbiya jarayonini eng yangi o'quv-metodik to'plamlar, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari bilan to'la ta'minlash zarur. ham aynan shu eng ilg'or pedagogik texnologiyalarini ta'lim tizimida, xususan, ona tili darslarida tadbir etishning metod, uslub va shakllarini nazariy tomondan asoslab berish hamda samarali natijalarga erishishdan iborat. Kurs ishi mavzusi takrorlash darslarini tashkil qilishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishni yoritish va uzluksiz ta'lim bo'g'inlarida ona tili o'qitish metodikasini ishlab chiqishga bag'ishlangani bilan muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, takrorlash va mustahkamlash darslari o'quvchilarning bilimlarini chuqurroq egallashiga asosiy sababch bo'ladi. Ma'lumki, har sinf darliklarida bo'lim yakunida umumlashtiruvchi darslar, ya'ni takrorlash darslari bo'ladi. Bu orqali o'quvchilar bir-birlari bilan fikr almashadi, mustaqil va mantiqiy fikrlashga, turli xil musobaqalar tashkillashtirilib jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini o'rganishadi. Demakki, dars t'limi jarayonida takrorlash darslarining ahamiyati juda katta. Takrorlash darslarida turli xil qiziqarli topshiriqlar, mashqlar, krossvordlar, savollar va shu kabi qiziqarli vazifalar o'quvchilarni qiziqishlarini orttiradi. Jumladan, 5-sinf ona tili "Leksikologiya" va "Lug'atshunoslik" bo'limlari yakunlangandan keyingi takrorlash darslarida sharadalar bilan ishlash topshirig'ini qo'llash mumkin.

Sharada -fransuzcha –"suhbat" so'zidan olingan bo'lib, she'riy topishmoqlarning bir turidir. Ular topishmoqlarning boshqa turlari kabi fikrlash va mulohaza yuritishga yordam beradi. Sharadalarining javobi bir nechta bo'lib, ulardan birini topish ikkinchi javobga yaqinlashtiradi, shuning uchun mantiqiy fikrlashga yordam beradi. Sharadalarining bir nechta xili mavjud. Biz she'riy shakldagisini tanladik .

1. Qishda uxlab yalang'och,  
Bahor qo'yar yashil soch.  
Harf o'zgarsa, totli bo'lar,  
Yesang, tanang kuchga to'lar.

**Javobi:tol-bol.**

2.Ikki yaproq bir tanda,  
Bog‘-u chamanni kezar.  
Yomg‘irdan so‘ng yetti rang  
Lojuvard ko‘kni bezar.

**Javobi: kapalak-kamalak**

Shuningdek,6-sinf ona tili darsligi mustahkamlash darslarida o`quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida turli xil matnlar berilib,ularga o`quvchilar o`zlaridan kelib chiqib sarlavha topishlari ,o`z fikr va mulohazalarini bildirishlari mumkin bo`ladi.Masalan,6-sinf mustahkamlash darsida O`zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning tarjimai holi keltirilgan.Bu matn orqali o`quvchilar ham mantiqaiy fikr yuritadi ham adabiyot borasidagi bilimlari mustahkamlanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Umumiy o`rta ta`lim maktablarining 6-sinfi uchun darsligi.Yangi nashr.Toshkent-2022,Iroda Azimova,Klaraxon Mavlonova,Sa`dullo Quronov ,Shokir Tursun.
2. Mahmudov N. va boshqalar. Umumiy o`rta maktablarning 5-sinfi uchun darslik. G`G`ulom nashriyoti.T.: -2020.